

PARAFRAZALARNING LINGVOKULTROLOGIK XUSUSIYATLARI

Husanova Mahliyo

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi 2 bosqich talabasi.

Almardavova Iroda

Ilmiy rahbar. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14278878>

Annotatsiya. Ushbu maqola parafrazalar, ularning xususiyatlari, o'zbek tilida tutgan o'rni, o'zbek tilining taraqqiy etishidagi ishtiroki hamda parafrazalarning lingvokultrologik xususiyatlarini, olimlarning tadqiqot natijalari va izlanishlar tahlillarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar. Parafraza, omonim parafraza, obrazli, uslubshunoslik, stilistik vosita, lingvokultrologiya, metafora, metonomiya, sinekdoxa.

LINGVOCULTROLOGICAL CHARACTERISTICS OF PARAPHRASES

Abstract. This article describes paraphrases, their characteristics, their role in the Uzbek language, their participation in the development of the Uzbek language, as well as the linguistic and cultural characteristics of paraphrases, as well as the research results and analyzes of scientists.

Keywords. Paraphrase, homonymous paraphrase, figurative, methodology, stylistic device, linguocultural science, metaphor, metonymy, synecdoche.

ЛИНГВОКУЛЬТРОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЕРФРАЗОВ

Аннотация. В данной статье описаны парфразы, их характеристики, роль в узбекском языке, их участие в развитии узбекского языка, а также лингвокультурные особенности парфразов, а также результаты исследований и анализ ученых.

Ключевые слова. Парфраз, омонимический парфраз, образность, методология, стилистический прием, лингвокультурология, метафора, метонимия, синекдоха.

Til kommunikativ aloqa vositasi sifatida insonlar orasida muloqot jarayonida ishtirok etadi.

Shuning bilan birgalikda, madaniyat ko'zgusi hisoblanadi. Unda nafaqat insonni o'rab turgan borliq, undagi xalqning ijtimoiy hayotini, uning mentalitetini, milliy xarakterini, madaniy an'analarini, urf-odat qadriyatlarini aks ettiradi. Til madaniyat xazinasi hisoblanib, leksika, grammatika, iboralar, maqollar, badiiy va ilmiy adabiyotlar orqali boyiydi. Bundan tashqari og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarimiz saqlanadi. Shu qatorda o'zbek tilining boyitilishida parafrazalarning ham hissasi kattadir.

Parafrazalar haqida shu kungacha ko'plab maqolalar va desertatsiyalar ishlangan. Bundan avval parafrazalar maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida rejada o'rganilmagan. Shuningdek, parafrazalar badiiy tasvir vositalaridan biri sifatida og'zaki nutqimizda ham yozma nutqimizda ham keng qo'llanadi. Parafrazalar tilimizning naqadar boyligi hamda ta'sirchan ekanligini ham ko'rsatadi. Ularning shaxs-narsa, buyum, voqea-hodisalarni tasvirlash yo'li bilan so'z birikmalari holida ifodalaydigan birikmalarga yoki so'zga tasviriy ifodalar yoki parafrazalar deb yuritiladi.

Ular biror narsa hodisaga o'xshatish orqali tasvirlab ifodalaydi, hamda narsa va hodisaning ikkinchi nomi hisoblanadi. Parafrazalar so'zning ma'nosini oydinlashtirish, matnni badiiylashtirish, takrori oldini olish kabi uslubiy vazifalarni bajaradi. O'zbek tilshunosligida tasviriy ifodalarning ma'no-mazmunini ifodalab berish, uning mohiyatini ochib berishi va qaysi uslubda qo'llanishi uslubshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Parafraza atamasining xorijiy lug'atlarda turlicha talqini uning farqli va o'xshash tomonlari xususida bahs yuritilgan. Parafraza aslida "grekcha" so'z bo'lib (paraphrasis), lingvistikada jumladan, o'zbek tilshunosligida "tasviriy ifoda" ma'nosida qo'llanadi. Bu hodisalar hozirgi kunda ham olimlar nazarida chetda qolgan emas. O'rganilgan manbalarga xronologik nazar solamiz. Leksikograf olim O.S. Axmanova tahriri ostida nashr qilingan lingvistik qomusiy lug'atda parafrazaga "biror so'zni ba'zi predmetlarning so'zlar orqali oddiy ifodalanishini tasviriy ifoda bilan almashtirishdan iborat bo'lgan ko'chim" deb izoh bergan.[19, B.312] O'zbek tilshunosligida ko'chim turi sifatida parafrazani o'quv qo'llanmalariga olib kirgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov 1893-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" qo'llanmasida: "...kishilarning otlarini yoki boshqa predmetlarning nomini to'g'ridan to'g'ri gapirmasdan, ularni turli xil so'z yoki tasviriy ifodalar vositasida bayon qilish perifrastik deyiladi" deb ta'rif bergan [34, B. 148]. Tasviriy ifodalarning parafraza yoki perifraza, parafrastik, perifraza deb yuritiladigan nomlari bir xil ma'noni anglatadi. Bu borada tadqiqot olib borgan tilshunos olimlardan. M.Mirtojiyevning tadqiqotlarida batafsilroq o'rganilgan.Olimlarning ta'kidlashicha "parafrazalar ma'lum bo'lak yoki ko'chma ma'noda bo'lib, ular ma'nosi sintezidan tashkil topgan, bir tushunchani bildiruvchi lug'aviy birliklardir...

Parafraza holda maqom olgan birikmada, garchi semantik qayta bo'linish kuzatilmaydi"[22, B.67]. Parafrazalar omonim, sinonim hamda metafora, metonimiya va sinekdoxa kabi ma'noviy shakllari mavjuddir.

Omonim parafrazalar nutqimizda bir parafraza o'rnida qo'llanilsa, unda bular shakldosh parafrazalar. Masalan,

Aql gimnastikasi- shahmat, matematika

Qora oltin- neft va ko'mir

Bahor elchisi- qaldirg'och va deyiladi boychechak kabilar

Sinonim parafrazalar esa bir so'zning bir necha tasviriy ifodalari bo'lsa ular ma'nodosh hisoblanadi. Masalan, Televizor-zangori ekran, oynayi jahon

Bahor-fasllar kelinchagi, uyg'onish fasli kabi.

Metafora asosida ma'no ko'chishida parafrazalar – muayyan hodisa va belgilarning nomini boshqasiga o'zaro tashqi o'xshashlik asosida ko'chirish jarayonidir. Metafora asosida o'xshashlik asosan uning rangi va xususiyatining o'xshashligi yetakchilik qiladi. Misol qilib olsak, qara oltin-neft, oq oltin-paxta, zangori olov-gaz, yashil boylik-ormon kabi. Metonimiya asosida o'xshashlikda bunda biror narsa hodisaning nomi bir narsaga o'xshashlik asosida emas, balki o'zaro bog'liqlik asosida ko'chishidir. Qiyoslaymiz, Alisher Navoiy-g'azal mulkingning sultoni, Abdulla Qodiriy-o'zbek romanchiligining asoschisi yoki paxtakorlar- oq oltin ijodkorlari.

Demak, metonimiyadagi predmetlararo bog'liqlik parafrazalarga ham xosdir. Biroq parafrazalardagi o'xshashlik o'zaro bog'liqlik tasviriy -obrazli holatda bo'ladi. Obrazli parafrazalarga biror predmetni unga taalluqli bo'lgan o'xshashlik bilan tasvirlashdir. Bunga misol qilib "oq oltin", "zangori ekran", "kumush tola", "oq chashma", "zangori olov" kabi.

Sinekdoxa usulida parafrazalarning o'xshashligi, bunda butun orqali qism tasvirlanadi.

Professor olim SH.Rahmatullayev sinekdoxani "bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabatining aks etishi" dir deb ta'riflaydi. Misol qilib oladigan bo'lsak, *peshonasi sho'r, zangori ekran, kumush tola* kabi.

Parafrazalar

Adab peshvosi- Mahmud az-Zamaxshariy

Amir ul-umaro- vazirlar

Aqilli mashina- kompyuter

Asr vabosi- giyohvandlik

Asr vabosi- OITS

Atom asri- XX asr

Bahor darakchisi- boychechak

Bahor elchisi- qaldirg'och

Baland choqqilar xo'jayini- burgut

Baxt qushi- humo

Bilim bulog'i- kitob

Bilim manbai-kitob

Bilim maskani-maktab

Butun dunyo ustoz-Zamahshariy

Buyuk texnika kashfiyotlari asri- XX asr

Dala malikasi- makkajo'xori

Davlat ustunlari- hukumat rahbarlari

Dehqonning qanoti- tractor

Dengiz hokimi -kit

Dunyo tomi-Pomir

Ekinning qoni-suv

Falakning gardishi-taqdir taqozosi

Futbol qiroli- Pele

Hayotimiz qomusi- Konstitutsiya

Hayvonlar shohi- sher

Ilm kaliti-kitob

Ilm maskani1 -maktab

Ilm maskani 2 -kutubxona

Ilm maskani 3 -universitet, institute

Ilm o'chog'i- maktab

Kishi ruhining injenerlari- yozuvchilar

Kumush tola- pilla

Kumush tola zahmatkashlari- pillakorlar

Kumush choyshab- qor

Kunchiqar yurt- Yaponiya

Kohna qit'a- Yevropa

Kokning fonusi- oy

Ko'zning oqu qorasi-farzand
Lolalar yurti-Gollandiya
Malik ul-kalom- Lutfiy
Malik ul-shuaro- Muhammad Solih
Mangu muzliklar diyori- Antraktida
Mavjudodlar sultoni-inson
Ma'rifat maskani- kutubxona
Millionlar o'yini- futbol
Mo'yqalam sohiblari-rassomlar
Non shahri-Toshkent
Odam ush-shuaro- Ro'dakiy
Oltin boshq- bug'doy
Oq oltin-paxta
Oq oltin ijodkorlari-paxtakorlar
Oq chashma-sut
Oq chashma sohibalari-sut sog'uvchilar
Osmon ilmi- astronomiya
Osmonning ko'z yoshlari-yomg'ir
Osoyishtalik posponlari-militsiya hodimlari
Ozodlik oroli-Kuba
Piri Turkistoni-Ahmad Yassaviy
Payg'ambar yosh- oltmish uch yosh
Palaxmon toshi-qiz bola
Po'lat etak -bunkerlar
Po'lat ot-traktor
Po'lat qush-samolyot
Qadimshunoslik-arxeologiya
Qalam ahli-shoir va yozuvchilar
Qanotli dostlar-qushlar
Qirollik klubi- "Real" jamoasi
Qora qit'a-afrika
Qushlar shohi-burgut
Raketka ustalari-tennischilar
Sahro kemasi-tuya
Samo lochini 1 - burgut
Samo lochini 2 -uchuvchi
Sehrli diyor-Amerika
Sulton ul-orifin-Ahmad Yassaviy
Til muhandislari- Tilshunoslar
Tilsiz yov- olov
Tumanli Albion- Angliya
Uyg'onish fasli- bahor

Vatan posponlari- harbiylari
Vatanimiz yuragi- Toshkent
Virtual olam- internet
Xarobalar sultoni- boyqush
Yosharish fasli-bahor
Yashil boylik- o'rmon
Yashil vodi-y-Farg'ona
Yaylov bahodirlari-cho'ponlar
Yerosti bo'roni-zilzila
Yetti xazinaning biri 1- tovuq
Yetti xazinaning biri 2- sigir
Yetti xazinaning biri 3- tegirmon
Yetti xazinaning biri 4-objuvoz
Yetti xazinaning biri 5- mevali daraxt
Yetti xazinaning biri 6-ipak qurti
Yetti xazinaning biri 7-asalari
Zangori ekran-televizor
Zangori olov- gaz
Zangori kema- paxta terim mashinasi
Zangori kema kapitani- paxta terim mashinasi haydovchisi

Kabi tasviriy ifodalardan foydalanishimiz mumkin. So'zlarning ta'sirchanligi va jozibadorlik darajasi qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Parafrazalar stilistik vosita sifatida nutqda ko'tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi va o'zbek tili lug'at boyligining boyitilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Parafrazalar ma'lum belgining alohida belgilar asosida tasvirlab, bo'rttirib ko'rsatadi, uning bo'yoqdorligini oshiradi. Va bir so'z bilan ifodalab lo'nda qilib ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uslub jihatdan parafrazalar so'zlashuv, publisistik va badiiy uslublarda qo'llaniladi.

So'zlashuv uslubida parafrazalar insonlar nutqida qadim zamonlardan ishlatilib kelinadi.

Bundan ko'rinadiki, tasviriy ifodalarda jamiyatning turmush tarzi, qo'llash uslublari va ularning aloqa madaniyatini, ma'naviy qarashlarini insonlarning til madaniyatini ochib beradi.

Bu jihatni esa bevosita lingvokultrologiyaga bog'lashimiz mumkin. Shuningdek, lingvokultrologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan, til tadqiqotining yangi sohasidir. Lingvokultrologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini tilda o'z aksini topgan xalqning madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq qiladi.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib "Til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'z madaniyatdan o'sib chiqqan vositadir" degan qarash ilgari surilgan.

Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi saqlanishi va uning tarkibiy qismidir.

Parafrazalar haqida qarashlar qadim zamonlardan mavjud bo'lgan shuningdek, bu haqida qadimgi til va uslubiyat nazariyotchilaridan Aristotel va Kvintilian tomonidan qayd etilganligi, mahalliy va sharqiy slavyan tilshunosligining ham diqqat markazida turganligi manbalarda qayd etilgan [10, B.143].

XX asrning 50-yillarida dunyo tilshunosligida ayniqsa rus tilshunosligida I.Z.Ilina(1954)[15] va V.P.Utkina (1959)[27]olimlar tomonidan lingvistik jarayon sifatida boshqa hodisa yoki vositalar (istiora, metonimiya, sinekdoxa, metafora, majoz, kinoya, sifatlash , kichraytirish, mubolag‘a) bilan bog‘liq holda tasvirlagan. Jahon tilshunosligida ham atroflicha o‘rganilib kelinmoqda. XX asrning 70-yillaridan boshlab o‘rganishga bo‘lgan qiziqish bir qadar oshdi. Parafrazalarni lingvistik muammo sifatida birinchilardan bolib V.P.Grigorev tadqiqotlarida so‘z-obraz-denotat munosabatlari nuqtai-nazaridan o‘rgandi. Olim uni “poetik nutq hosil qilishning eng yorqin qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri” deb tavsiflaydi [1,B.158].

Parafrazalar hosil bolishi uchun avvalo, malum bir belgi, narsa va hodisalar asos qilib olinadi. Ular o‘ziga tegishli bo‘lgan so‘z yoki so‘zlar bilan nomlanadi va bu belgi va narsalarning so‘z bilan munosabati o‘rganiladi va lingvistik jarayon sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslikda tasviriy ifodalar faqatgina so‘zlar bilan shakldoshlik qilingina qolmay ma’lum bir qo‘shimchalar orqali ham shakldoshlik hosil qilishi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Bu xususida O‘zbek tilshunos olimlaridan Ravshanxoja Rasulov va Ixtiyor Umirovlar parafrazalar borasidagi olib borgan ilmiy tadqiqotlari asosida “O‘zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lugati” da ta’kidlashicha “ Tilshunoslikda shunday so‘z yasovchi qo‘shimchalar borki, ular orqali ham parafrazalar hosil qilish mumkin. Bunda ma’nodosh qo‘shimchalar (sinonimiyasi emas) bir xil yoki har xil o‘zaklardan yasalgan so‘zlarning parafraza bo‘lishi tushunilishi lozim. Bu kabi qo‘shimchalardan -kor, -kash, -shunos, -gir kabilar parafrazalar yasaydi. Misol uchun: quruvchi o‘rnida binokor, pillakor o‘rnida zarshunos, yozuvchi o‘rnida qalamkash, tilchi o‘rnida tilshunos, yaratuvchgi o‘rnida binokor kosmanavt o‘rnida fazogir kabi ta’sirchanlikni ifoda etuvchi qo‘shimchalar mavjudligini asoslab bergan.[6.4]

O‘zbek tilshunosligida parafrazalar ijobiy bo‘yoqdorligi yuqori darajadaligi bilan ajralib turadi. So‘zlovchi nutqining ta’sirchanligini oshirib, unga jozibadorlik baxsh etadi. Shuning uchun ham parafrazalar jamiyatda insonlar orasida ayniqsa, so‘zlashuv uslubida keng qo‘llaniladi. Parafrazalar o‘zbek tilining boyishida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bizning yurtimizda axloq benihoya serqamrov va qiyosi yoq tushuncha sifatida ardoqlanib kelinadi shu sababli ham So‘zlarning ma’noli va bejirim usulda qo‘llanilishi va bir so‘z bilan aniq bayon etilish, bizning ham madaniyatimizni ham ma’naviyatimizni ko‘rsatadi, parafrazalar esa bu borada bizga katta ko‘mak beradi. So‘zlarimizni chiroyli dalillab ifodalab beradi.

REFERENCES

1. O‘zbek tili parafrazalari-10.02.02. 7-8 b.
2. Tursunov.U Muxtorov.J, Raxmatullayev.Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili- Toshkent, 1992. 81-bet.
3. F.Bobojonov, K.Rajapova. O‘zbek tili. Toshkent 2017. 57-b.
4. I.Xolmurodov, S.Musayeva. Diktantlar to‘plami, Nukus, 2016. 56-66 b.
5. R.Rasulov, I.Umirov. O‘zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug‘ati. Toshkent, 1997. 6-7-b
6. M.Hamroyev. Ona tili. Toshkent,2012. 43-b
7. N.Erkaboyeva. Ona tili qo‘llanma.
8. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent 200-2005.